



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Hakimova Nargiza Supxonovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

Boshlang'ich ta'lim yo'nishi 3-bosqich talabasi

Kattayeva Mehrangiz Nabiyevna,

[mehrangizkattayeva.@gmail.com](mailto:mehrangizkattayeva@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy darslarda qo'llaniladigan interaktiv metodlar, o'yinli texnologiyalar va muammoli ta'lim usullarining afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar hamda metodik ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, innovatsion texnologiyalar, boshlang'ich sinf, interaktiv metodlar, STEAM ta'limi, intellektual salohiyat, muammoli vaziyat.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Хакимова Наргиза Супхоновна,

Доцент (кандидат наук) Бухарского государственного педагогического института

Студентка 3 курса факультета начального образования

Каттаева Мехрангиз Набиевна,

[mehrangizkattayeva.@gmail.com](mailto:mehrangizkattayeva@gmail.com)

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение инновационных образовательных технологий в формировании навыков творческого и самостоятельного мышления у учащихся начальной школы. Анализируются преимущества интерактивных методов, игровых технологий и проблемно-ориентированных методов обучения, используемых в современных уроках. Также даются практические рекомендации и методические указания для учителей начальной школы по организации учебного процесса интересным и эффективным способом.

Ключевые слова: творческое мышление, инновационные технологии, начальная школа, интерактивные методы, STEAM-образование, интеллектуальный потенциал, проблемная ситуация.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR CREATIVE THINKING OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Hakimova Nargiza Supkhonovna,

Associate Professor (PhD) of the Bukhara State Pedagogical Institute

3rd year student of the Primary Education Department

Kattayeva Mehrangiz Nabiyevna,

[mehrangizkattayeva.@gmail.com](mailto:mehrangizkattayeva@gmail.com)

Annotation: This article discusses the role and importance of innovative educational technologies in the formation of creative and independent thinking skills in primary school students. The advantages of interactive methods, game technologies and problem-based learning methods used in modern lessons are analyzed. Also, practical recommendations and methodological instructions for primary school teachers on how to organize the lesson process in an interesting and effective way are given.

Keywords: creative thinking, innovative technologies, primary school, interactive methods, STEAM education, intellectual potential, problem situation

KIRISH

Bugungi tezkor o'zgarishlar va axborot asrida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri — faqatgina tayyor bilimlarni o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Kreativlik (ijodkorlik) — bu noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash, muammolarga kutilmagan yechimlar topish va yangilikka intilish qobiliyatidir. Inson shaxsining asosi va uning

intellektual poydevori aynan **boshlang'ich sinf (1-4 sinflar)** davrida shakllanadi. Shuning uchun ham kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ijodiy salohiyatini innovatsion texnologiyalar orqali uyg'otish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish – noan'anaviy muammolarga yechim topish, tasavvurni kengaytirish va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Quydagi innovatsion texnologiyalar bu jarayonni samarali tashkil etishda eng yuqori natija beradi: [1]

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz yetakchi pedagog va psixolog olimlaridan Sh.Abdullaeva, D.N.Arzikulov, E.G'oziyev, M.G.Davletshin kabi olimlar shaxs kreativ faoliyati va kreativ tafakkurini psixologik jihatlarini tadqiq etgan bo'lsalar, tabiiy fanlar va ekologik ta'limtarbiya va madaniyatni shakllantirish yuzasidan E.O.Turdikulov, B.X.Xodjaev, Yu.G'.Mahmudov, X.J.Xudayqulov, N.J.Isakulova, X.B.Norbutaev, Sh.L.Maxmudova, V.N.Sattorov, Ye.B.Aydarov, U.G.Saidova, A.R.Malikova, M.K.Shirinov, N.A.Mirzaeva, G.A.Ismoilova, A.Yu.Kuchkinov, G.I.Qosimova, L.M.Abdunazarov, I.X.Ayubovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Ma'lumki, kreativlik shaxs samarali faoliyatini ta'minlovchi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv o'quvchilar bilim o'zlashtirish sifatini ularning ijodiy faoliyati asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosidir. U shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. “Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilmaxillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik yaratish hisoblanadi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazilmutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar.[2] Sharq olimlari esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar[2]. Kreativlik-shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

METODOLOGIYA

O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olim R.A.Mavlanova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz: Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi; Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi; kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiynchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga, echimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir; o'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontseptsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.Qoliplardan voz kechamiz. Inson miyasi o'z ishini “yengillashtirish”,

“qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma’lum bo’lgan va umumqabul qilingan fikrlardir.[3] Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g’oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo’lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko’rinishlar ham yetakchi o’rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo’shiladi. Qolaversa, “oqim bo’ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko’ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo’yicha inson ongiga “so’rov” berilganida odatiy ma’lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, “yangi yil” deganda to’kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo’lida hassa tutgan, ko’zoynakli cholni ko’rish qolip asosida fikrlashning ko’rinishi.

Ilmiy-pedagogik yondashuvlar:

- **Tizimli yondashuv:** Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy faoliyatini uzluksiz, bir-biri bilan bog’langan va yaxlit bir tizim sifatida rivojlantirish qonuniyatlarini o’rganish.
- **Faoliyatli yondashuv:** O’quvchini dars davomida faqat tinglovchi emas, balki muammoli vaziyatlarni hal qiluvchi, loyihalar yaratuvchi va amaliy harakat qiluvchi asosiy subyektga aylantirish.
- **Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim yondashuvi:** Har bir o’quvchining individual-psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqib, undagi kreativlik drayverlarini uyg’otish.

MUHOKAMA

Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o’zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg’amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi. Eng ajablanarli jihati, ta’lim-tarbiya jarayoni ham o’quvchilarni bir xil fikrlashga o’rgatib qo’yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta’lim jarayonidagi bir xillikka ko’nikolmagani, qoliplarga sig’maganini ko’rish mumkin. Masalan, Albert Eynshteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan “uch” olgani bunga misol bo’ladi. Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funksiya, shablonlardagi to’siqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasi hisoblanadi. Kiyinish, o’zini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan ta’sirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab bo’ladi. Tomas Edison “Kreativlik - g’ayriixtiyoriy jarayon”, deydi. Lekin har kuni ko’plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g’ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi “sehrli tayoqcha” yo’q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o’ylashiga ko’maklashadigan ko’plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: “Ko’pchilik yiliga ikki-uch marta o’ylaydi.[4] Mening butun dunyoga mashhurligim sababi - haftada bir yoki ikki marta o’ylaganim”. Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e’tiborsiz qoldirmaslik, o’ylash uchun imkon yaratish muhim. Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O’zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so’rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o’rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo’ldi. Endi yangi g’oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi. Kreativlik shaxsni rivojlantruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo’lib, shaxsni o’z-o’zini rivojlantrish omili, inson ega bo’lgan bilimlarning va pedagogik kreativlik esa pedagogik jarayonni tashkil etish davomida noodatiy, ijodiy va mahsuldor g’oyalarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanishdan iboratdir. An’anaviy yondashuvdan farqli ravishda pedagogik jarayonga kreativ yondashuv yuzaga keladigan pedagogik muammolarni ijobiy yechimini topishga hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: ular tomonidan ko’p savollar berilishini rag’batlantirish va bu odatni qo’llab-quvvatlash; bolalarning mustaqilligini rag’batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

O’qituvchining Roli va Pedagogik Shart-sharoitlar

Kreativ muhitni yaratish birinchi navbatda o’qituvchining mahoratiga bog’liq. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi innovatsiyalarni joriy etishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

1. Erkinlik berish: Bolaning fikri kattalarnikiga o'xshamasligi tabiiy. Uni darrov "noto'g'ri" deb rad etmaslik kerak.

1. Savol berish san'ati: "Bu nima?" (yopiq savol) degan savol o'rniga "Buni yana qanday usullarda ishlatish mumkin?" (ochiq savol) degan so'roqni qo'llash afzal.

1. Doimiy rag'bat: Bolaning intilishi va noodatij yondashuvi uchun uni maqtash, undagi o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsiyalarni joriy etishdagi usullar NATIJALAR

Quyidagi jadvalda dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan aniq innovatsion texnologiyalar va ularning o'quvchi shaxsiga ta'siri ko'rsatilgan:

1-jadval. Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi innovatsion texnologiyalar

No	Texnologiya / Metod nomi	Qo'llash usuli (Amaliy misol)	Rivojlanadigan ko'nikmalar
1	"6 ta fikrlash qalpog'i" (Edvard de Bono)	O'quvchilar turli rangdagi (oq, qizil, qora, sariq, yashil, ko'k) qalpoqlarni kiyib, muammoni his-tuyg'u, tanqid, ijobiylik va ijodkorlik nuqtai nazaridan tahlil qilishadi.	Voqelikka har tomonlama baho berish, moslashuvchanlik, emotsional intellekt.
2	"Sinkveyn" (Besh qatorli she'r)	Biror mavzu bo'yicha 1 ta ot, 2 ta sifat, 3 ta fe'l, 4 ta so'zdan iborat jumlar va 1 ta xulosa so'z yozish (Masalan: <i>Ona, mehribon, go'zal, sevadi, asraydi, kuyunadi, bizni tarbiya qiladi, baxtimiz</i>).	So'z boyligini oshirish, mantiqiy tizimlash, xulosa chiqarish.
3	TRIZ (Ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi)	Ertak qahramonlarini qiyin vaziyatdan olib chiqish. Masalan: <i>"Bo'g'irsoq tulkiga yem bo'lmasligi uchun nima qilishi kerak edi?"</i> savoliga yangi yechimlar topish.	Fantaziya, ziddiyatlarni bartaraf etish, original g'oyalar yaratish.
4	Raqamli hikoyachilik (Digital Storytelling)	O'quvchilar o'zlari o'qigan yoki o'ylab topgan hikoyalarini planshet yoki kompyuter dasturlarida oddiy animatsiya yoki rasmlar orqali taqdim etishadi.	AKT savodxonligi, tasavvur olami, nutq madaniyati.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish darslarida quyidagi metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishlari mumkin.

"Aqliy hujum" metodi.

Bu metod o'quvchilarning erkin fikr bildirishini rag'batlantiradi. Masalan, o'qituvchi ertak o'qib bo'lgach, quyidagi savolni beradi: "Ertak qahramoni boshqacha yo'l tutganida voqea qanday yakun topgan bo'lardi?" O'quvchilar turli variantlarni taklif qiladilar. Bu jarayon ularning tasavvurini kengaytiradi.

"Rolga kirish" metodi.

O'quvchilar matndagi qahramonlar rolini ijro etib, voqeani sahnalashtiradilar. Bu metod ularning nutqini, ijodkorligini va ifodali o'qish malakasini rivojlantiradi. "Davomini top" metodi. O'qituvchi hikoyaning

ma'lum qismini o'qib beradi va davom ettirishni o'quvchi-larga topshiradi. O'quvchilar voqeani o'z tasavvurlari asosida davom ettiradilar. “Savol-javob” metodi. O'qish jarayonida o'quvchilarga muammoli savollar beriladi. Masalan: Nima uchun qahramon shunday qaror qabul qildi? Siz uning o'rnida bo'lsangiz nima qilardingiz? Bu savollar o'quvchilarning tahliliy va kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Keys-stadi

1-keys: “Ertak qahramonining qarori”.

Vaziyat: 3-sinf o'qish darsida o'qituvchi ertakni o'qib berdi. Ertakda qahramon qiyin vaziyatga duch keladi va u muammoni bitta yo'l bilan hal qiladi. O'quvchilarning ayrimlari qahramon boshqa yo'l bilan ham muammoni hal qilishi mumkinligini aytadi. Muammo: Qahramonning qarori to'g'ri bo'lganmi yoki boshqa yechim ham bo'lishi mumkinmi? Topshiriqlar: Qahramonning harakatini tahlil qiling. Muammoning boshqa yechimlarini taklif qiling. Agar siz qahramon o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz? Natija: O'quvchilar muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishni o'rganadilar va kreativ fikrlash rivojlanadi.

2-keys: “Ertakning yangi yakuni”. Vaziyat: O'qituvchi o'quvchilarga ertakni o'qib beradi, lekin yakuniy qismini aytmaydi. Muammo: Ertak qanday yakun topishi mumkin? Topshiriqlar: Guruhlarda ertakning yangi yakunini o'ylab toping. O'ylangan yakunni hikoya shaklida aytib bering. Qaysi yakun eng qiziqarli ekanligini aniqlang. Natija: O'quvchilarning tasavvuri va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu metodlar bolalarni shunchaki yodlovchi "robot" emas, balki hayotda duch keladigan har qanday muammoga ijodiy yechim topa oladigan mustaqil shaxs etib tarbiyalaydi. Zero, bugungi kunning kreativ yoshlari — ertangi kunning eng buyuk ixtirochilari va yetakchilaridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. O'qituvchi dars jarayonida interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi mumkin. Natijada o'quvchilarda nafaqat o'qish ko'nikmalari, balki ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham shakllanadi. Bu esa ularning kelajakdagi ta'lim faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil, 29 -apreldagi “O'zbekiston Respublikasi XAlq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF– 5712- sonli Farmoni . ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz).
2. Yuldashev S.N. Boshlang'ich ta'lim ixtisosligi talabalarini kreativ yondashuv asosida texnologik ta'limga tayyorlash metodikasi.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.6. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
5. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. G'ulomov A., Yo'ldoshev B. O'qish kitobi (boshlang'ich sinflar uchun). – Toshkent: Sharq, 2021.

Ikramova Aziza Aminovna , Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari orqali talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash	136
Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi , Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi , Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
Jumayeva Habiba G'aforovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarining o'z-o'zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
Nadirxanovna Nozima Alisherovna , Yozma madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda talabalarining sotsiologiyistik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
Очиллов Фарход Эгамбердиевич , Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в Узбекистане	171
Qurbonova Nafisa Saidjonovna , Differensiyal ta'lim va uning pedagogik ahamiyati	178
Qo'ldoshev Mehriddin Avezmurodovich , Ahmad Donish ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	182
G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Bo'lajak o'qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
Qo'chqorov Nodir Bozorovich , Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko'rinishlari	192
Sadullayeva Zarnigor To'liqinjonovna , Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
Safarova Nigora Nasilloevna , Transformativ ta'limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
Teshayeva Dilnoza Chori qizi , Talabalarda ekologik mas'uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
D.I. Normatova , Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
Jumayeva Habiba G'aforovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarining evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
Raximbayeva Gulyora Ulug'bekovna , Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik	228
Hamdamova Nigora Olimovna , Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna , Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
Filologiya fanlari	
Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы , Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их стилистические особенности	245
Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna , XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi , O'quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
Ahatova Durdona Davron qizi , Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi , "Korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og'zaki nutq hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish"	264
Nosirova Dilfuza Mustafoyevna , Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
Nosirova Nodirabegim Nodirovna , Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
To'raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna , Ona tili o'qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi: Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
Ijtimoiy fanlar	